

JULIEN SORREL VA MARTIN IDEN OBRAZLARIGA BIR NAZAR

Abduraimov Dilshodjon Abduraim o'g'li
University of Busines and Science (UBS university)
Tillar kafedراسi o'qituvchisi
dilshodjonabduraimov8@gmail.com
+998937259103

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo adabiyotining ikkita buyuk na'munasi Stendal qalamiga mansub "Qizil va qora" romanidagi Julien Sorrel obrazi hamda Jek London qalamiga mansub "Martin Iden" romanidagi Martin Iden obrazlaridagi mushtarrak jihatlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu ikki obraz misolida badiiy asar qahramonlarining ruhiyat dunyosining o'ziga xos xosliklari asnosida o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy holatining mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Badiiy asar obrazi. Obrazlilik. Ijtimoiy-siyosiy holat. Julien Sorrel obrazi. Martin Iden obrazi. XVIII-XIX asr Fransiya ijtimoiy-siyosiy muhiti. XX asr AQSh ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhiti.

Abstract: This article is concerned with the specific features of the common aspects of the images of Julien Sorrel in the novel "The Red and the Black" by Stendhal and Martin Eden in the novel "Martin Eden" by Jack London, and the purpose of these two images is to reveal the essence of the socio-political situation of that era through the specific features of the spiritual world of the heroes of the work of art.

Key words: Image of a work of art. Imagery. Socio-political situation. Image of Julien Sorrel. Image of Martin Eden. Socio-political environment of France in the 18th-19th centuries. Socio-political and cultural environment of the USA in the 20th century.

Аннотация: В данной статье рассматриваются специфические особенности общих аспектов образов Жюльена Сорреля в романе Стендаля «Красное и чёрное» и Мартина Идена в романе Джека Лондона «Мартин Иден». Цель анализа этих двух образов — раскрыть сущность социально-политической ситуации той эпохи через специфические особенности духовного мира героев произведения искусства.

Ключевые слова: Образ произведения искусства. Образность. Социально-политическая ситуация. Образ Жюльена Сорреля. Образ Мартина Идена. Социально-политическая обстановка во Франции в XVIII-XIX веках. Социально-политическая и культурная обстановка в США в XX веке.

KIRISH

Bilamizki, dunyo adabiyotida shunday badiiy asar qahramonlari (Agar bosh qahramon bo'lsa u...) borki, ularga nisbatan bu obrazlarning kashfiyotchisi bo'lgan yozuvchining badiiy tafakkuridagi va xayolot dunyosidagi asosiy maqsadi va muddaosini bor ko'lami bilan ularning "gardaniga" yuklatilgan hamda ular-da o'sha qalamkashning ushalmagan orzu-umidlarini, bu dunyoda qila olmagan yoki qilishganda, imkoni yo'q bo'lgan, shuningdek, muallif o'z zamonasida ayta olmagan (bunga o'z yashagan davrdagi mustabid tuzum yoki jaholat zahri ko'r qilgan zamondoshlarining "aqliligi" va "dunyoqarashlari" ham asosiy sabab bo'lishi mumkin...) dil-asrorlarini bor bo'yi basti bilan ana shu ijodkor(lar) yaratgan badiiy obrazlar o'z zimmasiga olganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi...

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi badiiy mulohazamizning asosiy qahramonlari sifatida XVIII-XIX asr fransuz romantizm va realizm adabiyotining ulug' vakili bo'lgan Stendal ijodidagi eng yuksak badiiyat na'munasi bo'lgan "Qizil va Qora" romani qahramoni Julien Sorrel hamda Amerika (AQSh...) romantizm va realizm adabiyotining tengsiz va yo'qsul yozuvchisi, adosan, XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmilarida qalam tebratgan vakili Jek Londonning "Martin Iden" romani qahramoni Martin Iden misolida, shuningdek, bu qahramonlarini bir-biriga taqqoslash, qiyoslash orqali ko'rib o'tamiz... Fransiya XVIII asrning ikkinchi yarimlarida hamda XIX asr bo'sag'asida... Bunda mustabid qirolning (Fransiya qiroli Lyudovik XVIII nazarda tutilmoqda...) farang xalqini ayovsizlarcha talash (iqtisodiy-moddiy jihatdan...), oddiy zahmatkash xalqni chumolidek ezishi, insoniy huquqlarni poymol etishi, na so'z erkinligi, na fikr erkinligining bo'lmasligi.... ,shuningdek, mazlum xalqning mustabiddan, uning hamtovoqlaridan nihoyatda bezish holati [1.1]...

Parij aristokratiyasi ("oqsuyaklar", zodagonlar, kazo-kazolar, kalandimog'lar, bechora ezilgan xalqning hisobidan boyiganlar, tekintomoq boyonlar, xullasi kalom, mustabid qirolning suyanadigan "tirgaklari" nazarda tutilmoqda...) jamiyatining mazlum va himoyasiz xalqqa nisbatan qilgan "ulug'" "himmatlari" ularni yanada ayovsizlarcha talashlari....sho'ring qurgur bechora xalq ahvolining kundan-kun taranglashib borishi....

ASOSIY QISM (MAIN PART)

Shuningdek, Fransiyaning kuchsizlanishidan manifaatdor bo'lgan tashqi g'animlarning (XVIII-XIX asrlar G'arbiy Yevropa mintaqasidagi Buyuk Britaniya, Prussiya, Rossiya, Ispaniya davlatlari nazarda tutilmoqda...) to'satdan g'imirlab qolishi va Fransiya davlat chegaralariga xavf solishi... Mustabidning (Fransiya qiroli Lyudovik XVIII...) bundan sira ham parvoyiga olmasligi...

O'z davlati va xalqi taqdiriga nisbatan befarqligi.... xiyonatlar... cheksiz xoinliklar... Sabr kosasi to'lgan xalqning oxiri oqibatda o'z haq-huquqlari uchun

kurashi hamda mustabidning "koshonasi" hamda "nishonasi" bo'lgan mash'um Basteliya qal'asining vayron qilinishi (1789-yil....)... Va nihoyat Mustabidning (Fransiya qiroli Lyudovik XVIII ning ...) xalq ko'z o'ngida qo'ydek bo'g'izlanishi (Zulm oxiri borib-borib, zolimning yoqasidan olishi falsafasi...). Hokimiyat uchun kurashlar.... Jirondachilar, Yakobinchilar o'rtasida shiddatli kurash davri.... Yana oddiy xalqqa zulm, yana mazlum zalqning qoni oqqan... Glotina daxshatlari... Qo'rquv.... Ta'qiblar.... Reppretsiya daxshatlari.... Yana tashqi g'animlarning g'imirlab qolishi.... Va nihoyat "Xalq qahramoni" ning (Napoleon Bonapart I nazarda tutilmoqda....) tarix maydoniga oq otini choptirib kirib kelishi [1.2]....

Shuningdek, bu "Xalq qahramoni"ning cheksiz g'alabalari.... Austrils, Ulm, Ulma muzzafariyatlari... Birin-ketin Ovrupo davlatlarining bosib olinishi.... Germaniya, Prussiya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Daniya, Luyksumberglarning ishg'ol etilishi.... Ulug' imperialistik davlatga asos solinishi (1800-yil...). Buyuk Britaniya va Rossiyadan mag'lubiyat alami.... Boradino jangi (1812-yil...) "Xalq qahramoni" ning surguni (Elba... 1814-1815-yil...) Va nihoyat uning o'limi... (Muqaddas Elena oroli.... 1821-yil...) Xullasi kalom, ulug' fransuz adibi Stendal mana shularni (yuqoridagi keltirmalarni....) bola nigohi orqali yoshligida butun qalbiga jo etgan holda voyaga yetib, o'zining shoh asari bo'lgan "**Qizil va qora**" romani qahramoni Julien Sorrel misolida, uning yoshligidagi buyuk qahramoni hisoblangan "Xalq qahramoni" ga (Napoleon Bonapart I)ga ishqibozligi tufayli "katta-katta" natijalarga erishish maqsadida poytaxtga, kalandimog'lar, mechkaylar, yebto'ymaslar, o'zidan oliftanamoni yasab olgan "xonimlar-u janoblar", sudxo'rlari, foizxo'rlar, tilida e'tiqod, amalida esa betoqatlik, ikkiyuzlamachilik (munofiqlik) balqib turgan "soxta dindorlar", boylik ummoniga g'arq bo'lgan zodagonlar, muttaham sudyalar, ochofat zavod-fabrika egalari, ikki ko'zi foydada bo'lgan tekintomoq bankirlar, haqiqiy sevgini bir tiyinga olmaydigan yengiloyoq va tannozi "xonimchalar" va ularning quliga aylangan "erlari".... Xullasi kalom, "daxshatli o'rmon" hisoblangan Parij Brujuaziya Jamiyatiga kirib kelishi.... Julien Sorrelning bu "daxshatli o'rmon"ga kirib kelishi asnosida oxiri oqibat uning o'limi bilan yakunlanishga olib kelishini u yetti uxlab, tushiga ham kirmagan edi... Fransiyaning uzoq provinsiyalarining (viloyatlarning....) biridan kelib, bu "daxshatli o'rmon" - Parij Brujuaziya jamiyati hayotiga "moslashishiga" harakat qilishi, xuddi bu jamiyatning bir vakili sifatida bu "pul va martaba hukmronlik qilgan" go'shaga butun qalbini berib, oshig'ishi, biroq "ko'rpannga qarab, oyoq uzatgin" yoki "Teng tengi bilan tezak qopi bilan...." degandek bu "daxshatli o'rmon" ichida uzoq kezib-kezib, biroq bu "daxshatli o'rmon" da o'z o'rnini topa olamagan hamda oxiri oqibatda bu "pul va boylik hukmron bo'lgan jamiyatda" dan itdek itqitilib yuborilishi hamda ularning "qo'lida" o'lim topishi..... Shu yerda bir tabiiy savol tug'ilishi mumkin... Julien Sorrel obrazi orqali Stendal o'zini qalamga olganmi yoki Xayolot dunyosidagi prototipini (Ayni shakli-shamoyilini...) yoki qahramonini yaratganmi?!!!!!... Albatta,

Stendal bu obraz orqali har ikkalasini ham qalamga olgan bo'lishi mumkin.... Misol uchun, Stendal bu romanida ("**Qizil va qora**"da), asosan, Fransiyaning poytaxti bo'lmish, shuningdek, "pul va boylik hukmronlik qiladigan" hamda "barcha narsani pul va martaba kuchi bilan hal qilinadigan" Brujuaziya jamiyatining "yuragi" hisoblangan Parij shahrining XIX asrning birinchi yarimlaridagi (20-30-yillarida) ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy-moddiy jo'shqin hayoti aks ettirilganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunda, avvallo, Stendalning bu "daxshatli o'rmon"ga o'zining kirib kelishi asnosidagi fikr-o'ylari ham unda bir badiiy asar tug'ilishiga hamda ushbu asarning qahramoni misolida o'zining bu "daxshatli o'rmon"ga - Parij Brujuaziya jamiyati haqidagi o'y-mulohazalarini hamda falsafiy qarashlarini o'sha asar qahramonining zimmasiga yuklatilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Sodda qishloqi yigitning ULKAN POYTAXTda telabalaricha kezishi, nelarnidir orzu qilishi hamda bu "orzulariga" yetishishi uchun "ulardek" munofiqlik va ikkiyuzlamachilik "hovlisiga" "mo'ralashi"..... Bora-bora o'zining oldingi sodda qishloqiligining o'rniga bu "bu madaniy dunyoning faqr fuqarosiga" aylanishi asnosida odamiylikdan, insoniylikdan biroz bo'lsa-da, uzoqlashishi....Shuningdek, oxir-oqibatda o'sha "pul va boylik hukmron bo'lgan jamiyat"ning qo'li bilan o'lim topishi jarayoni orqali ulug' fransuz adibi Stendal o'zining Parij Brujuaziya jamiyati haqidagi falsafiy qarashlarini aks ettirgan bo'lishi tabiiydir, albatta.... Chunki biron bir yozuvchi o'zi yaratgan badiiy asar qahramoni misolida o'zining shaxsiy fikr-mulohazalarni hamda olam, odam, hamiyat haqida qarashlarining kamida 50-70 % ni singdirgan bo'ladi [2.1].... Buyuk fransuz yozuvchisi Stendal o'zining shoh asari - "**Qizil va qora**" romanida, uning qahramoni Julien Sorrel obraziga judayam katta ijtimoiy-siyosiy mavzuni, ya'ni XIX asrning birinchi yarimlaridagi (20-30-yillaridagi) fransuz brujuaziya jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-moddiy manzarasini, shuningdek, davrning eng og'riqli muamolarini, shuningdek, jamiyatning mehnatkash tabaqa vakillari (ishchilar sinfi) ustidan cheksiz jabr-zulmlarini va hukmronligini, o'zgalarning og'ir va mashaqqatli mehnatini o'zinki qilib olishi, ya'ni o'zgalarning mehnatini va haqini o'zlashtirib olinishi (Ekspultuatsiya...) kabi salbiy illatlarni, shuningdek, Parijdagi brujuaziya hukmron tabaqa vakillarining shaxsiy boyishi maqsadida turli xil xiyla-nayranglardan, razolatdan, qabohatdan, yovuzlikdan tap tortmasdan oddiy mehnatkash tabaqalarining (ishchilar sinfining...) ezish hisobiga boyib borishini, shuningdek, XIX asrning birinchi yarimlaridagi (20-30-yillaridagi) fransuz brujuaziya jamiyatining asl qiyofasini, o'sha zamon kishilar orasidagi insoniy munosabatlarning soxtaligi (ishim bitguncha, eshagim suvdan o'tguncha qabilida...), bundan tashqari, insonparvarlik (Gumanizm) g'oyasining falokatini, sof insoniy tuyg'ularning poymol etilishini, tipik na'munasini hamda umumlashma obrazini, bundan tashqari, asar qahramoni Julien Sorrelning fojiali qismati orqali roman muallifi Stendalning falsafiy qarashlarini, umumlashma qarashlarini hamda eng muhimi asar g'oyasidan biri bo'lgan hayotining shafqatsiz

haqiqat bo'lgan XIX asrning birinchi yarimlaridagi (20-30-yillaridagi) fransuz brujuaziya jamiyati orqali hech qachon brujuaziya tabaqasi bilan kambag'al va ishchilar sinfi vakillarining o'zaro do'st bo'lib, yashay olmasligi, brujuaziya jamiyati hech qachon jamiyatining ojiz va yo'qsul tabaqasini o'z jamiyatiga qabul eta olmasligi haqidagi falsafiy qarashlarini ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Shuningdek, biz suhbatimizning ikkilamchi qismini esa jahon adabiyotining yana bir sara asari hisoblangan amerika yozuvchisi Jek London ijodidagi avtobiografik roman hisoblangan "**Martin Iden**" asri qahramoni Marten Iden obrazi orqali suhbatimizni yana davom ettiramiz... XIX asrning oxirgi choragiga kelib, (80-90-yillarida) AQSH davlati iqtisodiy-moddiy jihatdan judayam yuksalib borib, amerikaning "tojsiz qurollari" hisoblangan savdo-sanoat va ishlab chiqarshi sanoatining, ulkan zavod-fabrikalarining xo'jayinlari - AQSH brujuaziya jamiyatining eng oldi toifasi bo'lib, butun AQSh brujuaziya jamiyatini uning butun ijtimoiy-siyosiy va moddiy-iqtisodiy jabhalarining boshqaruvini qo'lga olib, oddiy xalqni qonini so'rib, mehnatkash va mazlum ommaning kuchidan suv tekin foydalanibotgan bir davr [2. 2] Mana shunday ayanchli va mashaqqatli davrni o'zning badiiy tafakkurida jonlantirgan hamda shu davrning butun ijtimoiy-siyosiy va moddiy-iqtisodiy, shuningdek, qisman ma'naviy-ma'rifiy hayotidan, turmushidan badiiy adabiyotdagi romantizm va realizm (Tanqidiy realizm metodi vositasida....) metodlaridan unumli foydalangan holda yuksak badiiyat na'munasini yaratgan mashhur amerikalik yozuvchi va jurnalist Jek London hisoblangan.... Bu ulug' ijodkor yaratgan Marten Iden obrazi bilan biz suhbatimizning yuqorisida mulohaza yuritganmiz "**Qizil va qora**" romani qahramoni Julien Sorrel obraziga mazmunan judayam o'xshab ketishini bir jihatdan ko'rishimiz mumkin bo'ladi...

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Faqatgina tashqi shakliy farq bunda millat jihatdan (Marten Iden amerikalik ingliz millatiga mansub badiiy obrazi bo'lsa, Julien Sorrel esa fransuz millatiga mansub badiiy qahramon sanaladi...). Ikkilamchi farq esa davr, o'tmish jihatdan farqlanib turganligini ("**Qizil va qora**" romanida fransuz brujuaziya jamiyatining XVIII-XIX asrlardagi umumlashma obrazini ifoda etganligini hidobga olsak, "**Martin Iden**" romanida esa Shimoliy Amerika kapitalistik va brujuaziya jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va moddiy-iqtisodiy turmushning XIX asrning oxirlaridagi (80-90-yillaridagi) hamda XX asr boshlaridagi manzarasini ko'rsatib o'tilgandir....) ko'rishimiz mumkin bo'ladi [3]...

Biroq bu shakliy (tashqi) o'xshashlik deyarli bu yuksak badiiyat na'munalarining mazmunan o'xshashligiga unchalik ta'sir qilmaydi... Masalan, Martin Iden ham Julien Sorrel singari kambag'al va yo'qsul bir oiladan chiqqan bo'lib, oddiy ishchi va mehnatkash tabaqalarining tipik vakili sifatida romanda bor fonida namoyon bo'lganligini ko'rib o'tamiz... Martin Idenning taqdirini deyarli o'zgartirib yuborgan

voqea-hodisalar jarayoni bu roman boshida uning bir amerikalik brujuaziya tabaqasi vakilining oilasiga to'satdan "mehmon" bo'lishi hamda bu boy oilaning erka va tantiq qizi bo'lmish Rufini bir ko'rishda aqldan ozar darajada telbalarcha sevib qolishi va oxiri oqibatda o'z taqdirida kutilajak muqarrar o'limini tezlashtirganligini ko'rishimiz mumkin [3.2] ...

Amerikalik yozuvchi Jek London ham o'zining fransuz hamkasbi Stendal kabi o'zining shoh asari "**Martin Iden**" romani qahramoniga judayam katta ijtimoiy-siyosiy g'oyani hamda o'zining olam, odam, jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini va mushohadalarini singdirganligini, uning qahramoni Martin Idenning butun asar davomida aks ettirilgan ruhiyati dunyosi orqali berib boriladi.... Martin Iden dastavval, asar boshida amerika brujuaziya va kapitalistik jamiyatning tipik na'munasi bo'lgan Rufilarining xonadoniga "tashrifidan" u bu "kazo-kazolar"ning davrasiga hech qachon qabul qilinmasligini bilmaydi... Rufiga bo'lgan beg'araz sevgisi tufayli chuqur xayollar og'ushida mashhurlikka erishmoqchi bo'ladi: Ya'ni yozuvchi kasbi orqali mashhur bo'lmoqchi bo'ladi... Va nihoyat Rufi shundan keyin uni "sevib qolishi" kerak... Romantizm metodiining go'zal lavhasi... Biroq shafqatsiz hayotning shafqatsiz haqiqati shundan iborat ediki, boy brujuaziya tabaqasi vakili sifatida Rufi uzoq vaqt Martin Idenning sevgisi ustidan kulib yuradi... Realizm metodining yuksak lavhasi... "**Martin Iden**" romanida inson yuragini ezadigan hayotning shafqatsiz haqiqatlarning tipik na'munasini biz Martin Idenning kambag'allik va yo'qsullik ko'chasidan yorug' kelajakka erishish sari kir yuvuvchilik kabi brujuaziya va kapitalistik jamiyati vakillari or qiladigan "eng tuban va yaramas" yumush qolib yurgan kezlari bironta bir brujuaziya tabaqasi vakili unga qiyo ham boqmagan edi....nomini ham so'ramagan edi...tantiq boyvachcha qiz Rufi Martin Idenning "dovdirligidan" o'zining brujuaziya tabaqasi vakillariga tanitishdan uyalardi... (**Tanqidiy realizm metodi vositasida...**)

Bunda adib Jek London XIX asrning oxirgi choragidagi (80-90-yillaridagi) AQSh brujuaziya va kapitalistik jamiyatning butun kirdikorlarini, asl tuzilishini, bu "kiborlar" jamiyatida sof va beg'araz insoniy tuyg'ularning toptalishini hamda poymol etilishini, shuningdek, insonparvarlik (Gumanizm) g'oyalarining brujuaziya jamiyatida begonaligini yozuvchi kuchli tarzda tasvirlab bergan edi... Shunda biz ikki qahramon Julien Sorrel va Martin Idenning ruhiyat dunyosida bir-biriga o'xshamagan holatlarini nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda, avvallo, "**Qizil va qora**" romanida Julien Sorrel XVIII-XIX asrlar fransuz brujuaziya jamiyatiga "ship" etib kirib olishi uchun ulardek munofiq va ikkiyuzlamachilik yo'lidan hamda jahon adabiyotining "xotinboz" obrazi qahramoni bo'lgan Don Juan singari poytaxtining (Parijning) bir qancha yingiltabiati ayollariga "xushtor" bo'ladi....

(Bunda uning munofiqlashuv jarayoni ochiq ko'rsatilgan....) amerikalik yozuvchi Jek Londonning avtobiografik romani qahramoni Martin Iden esa XIX-XX asr Shimoliy Amerika brujuaziya va kapitalistik jamiyatiga Julien Sorrel singari yo'ldan

emas, balki o'zi g'oyibona sevgan qizi boyvachcha qiz Rufining muhabbatini mashhur yozuvchi bo'lish orqali erishishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin mumkin bo'ladi... Shuningdek, bu ikkala asar qahramonlari ham oxiri oqibatda o'z davrining brujuaziya jamiyatining "qurbonlariga" aylanishgan edi...

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytmog'imiz lozimki, Julien Sorrel obrazi orqali XVIII-XIX asr fransuz brujuaziya jamiyati vakillari singari ikkiyuzlamachilik va munofiqlik qilishi orqali u buning "kasriga" qolib, "jazosini" aynan o'zi intilgan brujuaziya jamiyatining "hiimmatidan" topgan edi... Martin Iden obrazi orqali XX asr AQSh dagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayon hamda butun Amerika brujuaziya jamiyatining illatlaridan hamda munofiqligidan, ikkiyuzlamachiligidan nafratlanib, oxir-oqibatda ularning orasida yashashni istamaganligidan o'z hayotiga "nuqta" qoyadi.... Chunki kishiga alam qiladigan tomoni shundaki, Martin Iden ulug' yozuvchilik martabasiga erishganidan so'ng uning dargohiga o'sha ikkiyuzlamachi va munofiq brujuaziya tabaqasi vakillari tez-tez serqatnov bo'lib qoladi... Martin Iden tezroq bu muhitdan ketishga qaror qiladi hamda bunga qaror qiladi....(Hayotning shafqatsiz qununi va haqiqati shu bo'lsa kerak-da....). Bu ikki asarda ham asosiy mushtarraklik xususiyat bu - Julien Sorrel ham, Martin Iden ham o'z zamonasiga sig'maganidan hamda brujuaziya va kapitalistik jamiyat vakillari bilan kelisha olmaganidan (Bunda Martin Iden judayam faolroq bo'lgan...) hamda aynan shu jamiyat sabab umrlari zavolga yuz tutganligidadir...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

(Referensec)

1. London J. Martin Iden (Martin Eden), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2016, 608 p.
2. London J. Jack London and his times, Published by University of Washington Press, 1968. Description: XVII, 385 p.
3. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi (Theory of literary studies), Tashkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004,
4. Stendal. "Qizil va qora" romani. "Yoshlar" nashriyot uyi. 2019

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.til va adabiyot ta'limi.uz
4. www.Scoups
5. [Https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https://ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https://www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https://jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https://www.Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)